



XURSHID DAVRONNING “BOBUR” SHE’RI XUSUSIDA

Lola To‘xtayeva,
*BuxDU filologiya fakulteti Adabiyotshunoslik
(o‘zbek) yo‘nalishi 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya. O‘zbek adabiyotida o‘ziga xos o‘ringa ega, she’rlaridan tarixning shonli nafasi kelib turadigan, Vatan va Istiqlol, muhabbat va mehr, sadoqat va nafrat kabi tushunchalarni oxorli tashbehlarda kuylaydigan shoirlarimizdan biri Xurshid Davrondir. Ushbu maqolada Xurshid Davronning tarixiy she’rlari haqidagi qarashlari o‘rganilgan. “Bobur” nomli she’rida ifodalangan o‘tmishni bugun bilan, bugunni kelajak bilan bog‘laydigan ko‘hna tarix yoritilganligi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Tarix, she’riyat, uslub, mahorat, shoir, yodgorlik, buyuk sarkarda, Kobul, Hindiston, Samarqand.

O‘tgan asrning 70-80- yillarda o‘zbek adabiyotida yangi nafas, yangi ruhiyat olib kirgan shoirlar avlod yetishib chiqdi. O‘z she’rlarida millatning dard-u g‘amini, tashvish-u orzularini, xususan, shonli tarixini kuylashga intilgan shoirlardan biri Xurshid Davrondir. Uning she’riyatidagi mavzular olami rang-barang va serjilo. Lekin shu mavzular orasida dominantlik qiladigan bir mavzu bor. U ham bo‘lsa tarix mavzusi. Tarix kecha va bugunni bog‘lovchi ko‘prik, o‘tmishdan xulosa chiqaruvchi hayot kitobi, ibrat, nafrat, qabohat, zulm, zo‘ravonlik, sog‘inch, hijron, mehnat, kutish kabi tuyg‘ularni yuragingga olib kiradigan bebahो kalom. Xurshid Davron Samarqand farzandi bo‘lgani uchun ham qadim va navqiron shaharning har bir shaharning toshidan xas-xashagidan tortib, tarixiy shaxslarigacha she’rlarida qalamga oladi.

“Xurshid Davronning aksariyat she’rlarida tarix mavzusi shoirni o‘ylantirayotgan, uni qiyayotgan muammolarni badiiy idrok etish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa shoir yashab, ijod qilib turgan davr, ijtimoiy voqelik bilan bog‘lanadi. Chunki shoirning 1986-yil e’lon qilingan “Bolalikning ovozi” to‘plamiga kiritilgan she’rlar 70-80-yillarda yaratilgan. Adabiyot hali ham sotsialistik realizm ta’siridan butunlay holi bo‘lmagan, millat tarixiga mafkurafiy munosabat va uni noto‘g‘ri talqin qilish, tarixiy mavzudagi asarlarga siyosiy jihatdan yondashuv davom etayotgan davrda ijtimoiy tafakkuri o‘zgacha shakllanayotgan yangi adabiy avlod qatorida Xurshid Davron ham o‘z ijodida Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi singari tarix mavzusiga ko‘p murojaat qilgan. Aslida tarix orqali “bugunning gapini aytish” mohiyatan bir xil bo‘lmasa-da, jadid ijodkorlaridan boshlanganligi ma’lum. Shoir o‘zi anglab yetgan haqiqatlarni tarix pardasiga berkitib ifodalashga urinadi. Masalan, shoirning

“Samarqandagi ozodlik haykali qoshida o‘ylar” she’rida lirik qahramonning millat ozodligiga jon tikkan Fitrat, Cho‘lponlarga xos o‘y-kechinmalari, qalb tug‘yonlari o‘z ifodasini topgan”. [1, 56]

Xususan, shoirning 1981-yilda yozilgan “Bobur” nomli she’rida tarix mavzusidagi uzoq o‘tgan tariximizga murojaat etilgan. Ijodkorning shu mavzudagi yaratilgan she’rlarini kuzata turib, nafaqat yaqin zamondosh davrda sodir bo‘lgan tarixiy voqealar va shaxslar, balki shonli o‘tmishimizning buyuk shaxslari, buyuk siymolari, tarixiy obidalari, toponimlari nazaridan chetda qolmaganligiga guvoh bo‘lamiz.

Ushbu she’r buyuk sarkarda va shoir Zahiriddin Muhammad Boburga bag‘ishlangan. Unda falsafiy-siyosiy qarashlar, tabiat hamda insoniyat o‘rtasidagi bog‘liqlik, vaqtning o‘zgaruvchanligi va umrning qiyinchiliklari tasvirlangan. Shoir Boburning shaxsiyatini, tarixiy ahamiyatini va insoniy kechinmalarini badiiy tasvir vositasida ochib bergan. Xurshid Davron Boburni nafaqat buyuk davlat arbobi va sarkarda sifatida, balki o‘z davrining iste’dodli shoirlaridan biri sifatida tasvirlaydi. She’rda Boburning hayotidagi kurashlar va maqsadlar aks etadi.

Otlar yelar shiddatdan terlab,
Yangrar xatar to‘la taqalar.
Hurkib ko‘kka sapchir patirlab,
Tun uyqusi - qora qarg‘alar. [3, 148]

Baytdagi misralar nafaqat tashqi, balki ichki ruhiy holatni ham aks ettiradi. Otlar jangovor va kuchli hayvonlar ular odatda kurash, harakatning ramzi sifatida ishlatiladi. Qadimda ajdodlarimiz o‘z turmush-tirikchiligidida otdan keng foydalanganlar. Ot ularga ham oziq, ham uzoqni yaqin qiluvchi ulov, ham chorvani boqishda ko‘makdosh ish hayvoni sifatida xizmat ko‘rsatgan.³³⁵ Ko‘plab xalqlarda ot alohida ma’no va ahamiyatga ega bo‘lib, u kuch, erkinlik, harakatchanlik hamda sadoqatni ifodalaydi. Jumladan, o‘zbek xalq dostonlaridagi G‘irot, G‘irko‘k, Boychibor, Jiyronqush, Majnunko‘k kabi epik ot obrazlari bunga yorqin dalil bo‘la oladi.³³⁶

Qarg‘a, odatda, aqilli va sirli qush sifatida tasvirlanadi. Shuning uchun unga nisbatan ko‘pincha aqli fikr, xotira yoki ma’naviy o‘sishning ramzi sifatida qaraladi. U o‘lim va qayta tug‘ilish bilan bog‘liqidir.

Lirik to‘rtliklarda qarg‘a ham qiyosiy manba holida juda ko‘p uchraydi. U mozorlarda, xarobalarda yashashi, qora rangdaligi, ovozining yoqimsizligi tufayli qo‘shiqlarda yolg‘izlik, yomonlik ramzida qo‘llanadi. Quyidagi qo‘shiq bu fikrimizning tasdig‘idir:

³³⁵ M.Jo‘rayev, D.O‘rayeva. O‘zbek mifologiyasi.- Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 2019. -B.92.

³³⁶ M.Jo‘rayev, D.O‘rayeva. O‘zbek mifologiyasi.- Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 2019. -B.92.

Yormozorning yo‘lidan
 Qarg‘a - quzg‘un uchadi.
 Men yorimni sog‘insam,
 O‘ng qovog‘im uchadi.³³⁷

Yuqoridagi baytda dunyodagi kuchli, xavfli va sirli voqealar tasvirlangan. Bu misralar orqali Bobur zamonida, balki uning hayot yo‘lida yuz berayotgan xavfli, shiddatli holatlar haqida fikr yuritish mumkin.

Zahiriddin, qayga borursan,
 Bobong taxtin, yurtingni tashlab?!
 Qora taqdir seni qul kabi
 Qayonlarga ketmoqda boshlab?! [3, 148]

Yuqorida Zahiriddin Muhammad Boburning qahramonligi va taqdirining qiyinchilikda o‘tganligi, ona yurti, kindik-qoni to‘kilgan diyordan bosh olib ketishi tasvirlangan. Baytda “qora taqdir” atamasi dushmanlar yoki baxtsizliklar tomonidan keltirilgan og‘ir holatni ifodalaydi. Bu esa buyuk sarkardaning o‘z yurtini, temuriylar taxtini tashlab, o‘zga yurtga bosh olib chiqib ketishiga sabab bo‘ladi. Bu haqida Boburning o‘zi quyidagicha yozadi:

“Jumod ul-avval oyi Kobuldan Hindiston niyati bilan ko‘chdik. Kobulning o‘zi bilan yurib Surxrabol orqali Quruqsoyga tushildi. Kobul bilan Lamg‘on orasidagi afg‘onlar, hatto tinch paytlarda ham o‘g‘ri, ham kazzobdirlar, urush va to‘polonlarda-ku ularga rosa Xudo beradi. Meni, Kobulni tashlab Hindistonga boradi, deb eshitgach, bir yomonliklari o‘n bo‘ldi, yaxshi odamlari ham yomonlikka yuz tutishdi.”³³⁸

Zahiriddin, ortga bir qara,
 Ortga bir boq, toki sen omon,
 Axir keyin tushlaringda ham
 Bu tuproqni ko‘rmog‘ing gumon. [3, 149]

Bobur o‘zbek adabiyotida o‘zining nozik lirik asarlari bilan mashhurdir. Uning hayoti adabiy faoliyati urush va janglar davriga to‘g‘ri keldi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan u sara ijod namunalarining muallifidir. “Boburnoma” asari avtobiografik asar bo‘lib, unda ko‘rgan-

³³⁷ BuxDU o‘zbek adabiyoti kafedrasasi huzuridagi folklore arxiv. inv. №28-papka, 3-daftар, 8-о‘шиқ.

³³⁸ Boburnoma .- Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti , 2008. -B.161

kechirgan voqealar, urush va janglar, sevgi-muhabbat, tabiat, olam, hayvonot olami tasviri hikoya qilingan. Shoir ruhiyatida aks etgani uning she’rlarida ham namoyon bo‘ladi. Keyinchalik o‘z yurtini tark etib, Afg‘oniston va Hindistonga yuz tutganda Bobur she’riyatida Vatan tuyg‘usi, Vatan sog‘inchi, unga qaytish umidi mavj ura boshladi.

Tole yo‘qki jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,
Har ishnikim, ayladim xatolig‘ bo‘ldi,
O‘z yerin qo‘yib Hind sori yuzlandim,
Yo rab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi.

Boburning orzulari, umidlari, sabr-matonati, vatanga bo‘lgan muhabbat, oilaga nisbatan mehr-oqibatni, shuningdek, uning kelajakka umid bilan qarashini his qilib bugungi yosh avlodlar ibrat olsa, ajdodlarimiz qoldirgan qadriyatlarning umri yanada bardavom bo‘ladi.

Alam bilan yuragi urar,
Shivirlaydi titroq lablari:
“Hamma yerdan ko‘rinib turar
Samarqandning minoralari”. [3, 149]

Samarqand minoralari shaharning ko‘plab tarixiy va madaniy yodgorliklaridan biri bo‘lib, ularning jozibasi har doim sayyoohlar va tarixsevarlar uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Samarqandning me’moriy obidalari, jumladan minoralari, o‘zining noyob dizayni, boy tarixiy merosi va estetikasini namoyish etadi. Baytda Samarqand nafaqat Bobur, balki Xurshid Davronning ham yurti ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Samarqand minoralari turli tarixiy davrlarni aks ettiradi. Masalan, Registon maydonidagi minoralar, shaharning o‘tmishdagi boy madaniyati va ilm fan markazi sifatida yuksak mavqega ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Minoralar geometrik naqshlari va rang-barangligi bilan islom me’morchiligining eng yuqori nuqtalaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Shoirning xalq qahramoniga aylangan Namoz botir haqidagi “Namoz yo‘li”, “Namoz haqida qo‘sish”, “Botir Namoz o‘limi” (1907-yil 3-iyun), “Namozning qilichi haqida ertak”, shuningdek, “Alisher Navoiy”, “Bibixonim”, “Ulug‘bekning qasosi”, “Shiroq”, “Behzod”, “Afrosiyob”, “Samarqand”, “Bobur”, “Usmon Nosir”, “Turkiston”, “Qodiriyni o‘qib”, “Devonul lug‘otit-turk” ohanglari”, “Jangchi haqida rivoyat” kabi she’rlarida ham ona vatan, yurt ozodligi, inson qadri, iymon-e’tiqod, tarixdan saboq, ajdodlar ibrati va shoir yashab turgan jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, totalitarizm oqibatlari masalasi asosiy o‘rin tutadi. Shoir o‘z vatanini ozod va obod ko‘rishni xohlaydi, unda barcha insonlarning farovon yashashini istaydi, qalbini qiynayotgan savollarga javob topishga intiladi.

Umuman, Xurshid Davron she’riyatida ijtimoiy dardning shaxsiy dardga aylanishi va uning o‘ziga xos badiiy tarzda ifoda eta olganini ko‘ramiz. Shoир ijodida tarixiy voqelik, tarixiy shaxslar talqini keng qamrovli ifodasini topgan. Ularga o‘tmish va shoир yashab turgan ijtimoiy davr nuqtayi nazaridan kelib chiqib yondashganligi, tarix vositasida o‘z davridagi ijtimoiy muammolarni ochib bergenligi ijodkorning chinakam yutug‘idir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mo‘minov B. Xurshid Davron ijodida tarix konsepsiysi. (“Xurshid Davron ijodining ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati” mavzusidagi o‘tgan respublika ilmiy konferensiya to‘plamidan). Toshkent: 2022. – B.56
2. Boburnoma.– Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 2008. –B.161
3. Xurshid Davron. Bahordan bir kun oldin. Toshkent: 1997. –B.224
4. www.ziyo-net.uz
5. www.literature.uz
6. www.kutubxona.uz